



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'ydinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiye" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kangalning o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

UO'K: 821.512.133

ADABIYOT FANI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI TALQINI

<https://zenodo.org/records/18754542>

Hasanov Sharobiddin A'zamovich,

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari, ularning tasnifi, tavsifi hamda adabiy ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri xususida fikr yuritiladi. Xususan, adabiyot o'qituvchisining jamiyatda tutgan o'rni, ta'lim tizimidagi mavqei, pedagogik maqomi uning kasbiy kompetensiyalariga, kompetentligiga qat'iy bog'liqligi, zamonaviy ta'lim muhitida yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun pedagoglardan yuksak kasbiy bilim, metodik ustuvorlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlar talab etilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, pedagogik tajriba, relaksatsiya, kreativlik, kommunikativlik, axborot texnologiyalari, badiiy vositachi, ijtimoiy tashkilotchi, adabiy ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются профессиональные компетенции учителя литературы, их классификация, описание и влияние на качество и эффективность литературного образования. В частности, утверждается, что роль учителя литературы в обществе, его положение в системе образования и его педагогический статус строго зависят от его профессиональных компетенций и компетентности, и что для всестороннего обучения молодежи в современной образовательной среде от учителей требуются высокие профессиональные знания, методический подход и творческий подход.

Ключевые слова: компетентность, педагогический опыт, релаксация, креативность, коммуникация, информационные технологии, художественный посредник, социальный организатор, литературное образование.

Abstract. This article discusses the professional competencies of a literature teacher, their classification, description, and impact on the quality and effectiveness of literary education. In particular, it is argued that the role of a literature teacher in society, his position in the education system and his pedagogical status strictly depend on his professional competencies and competence, and that for the comprehensive education of young people in a modern educational environment, teachers are required to have high professional knowledge, a methodological approach and a creative approach.

Key words: competence, teaching experience, relaxation, creativity, communication, information technology, artistic mediator, social organizer, literary education.

Uzoq yillik pedagogik tajriba va kuzatuvlarimizga tayanib ayta olamizki, har bir fan o'qituvchisining xarakter-xususiyatlari, muloqot manerasi, tafakkur ko'lami, kasbiy maqomi, imiji – kompetensiyalari o'zi dars beradigan fan mazmuniga uzviy bog'liq bo'ladi. Aniq fan o'qituvchilaridagi qat'iyat, tartib, talabchanlik; ijtimoiy fan o'qituvchilaridagi bag'rikenglik, mulohazakorlik; jismoniy tarbiya o'qituvchilaridagi jo'shqinlik, harakatchanlik; texnologiya fani o'qituvchilaridagi yaratuvchanlik, ijodkorlik kabi sifatlar, shubhasiz, ularning mutaxassislik fanlariga aloqadordir. Albatta, har bir fan o'qituvchisining jamiyatda o'zining munosib o'rni, hurmat-ehtiromi bor. Biz quyida adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari xususida fikr yuritimiz.

Yetuk nazariyotchi, taniqli metodist olim Q.Yo'ldoshev adabiyot o'qituvchisini quyidagicha tavsiflaydi: "Adabiyot o'qitishning maktab ta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlarini o'qitishdan jiddiy farqlanadigan bir jihati uning o'qituvchi shaxsiyatiga qattiq darajada bog'liq ekanligidir. Adabiyot o'qituvchisiga adabiyotshunoslikni puxta o'zlashtirish va adabiyot o'qitish metodikasiga doir yangiliklarni egallab olish kifoya qilmaydi. Adabiyot o'qituvchisi ham bilimi, ham shaxsiyati bilan o'quvchilarni o'ziga rom eta olsagina adabiy ta'limdan ko'zda

tutilgan maqsadga erishishi mumkin. Adabiyot o'qitishda fanga muhabbat o'qituvchiga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi [2].

Adabiyot o'qitish hissiyotga, ma'naviyatga bog'liqligi va o'quvchi axloqini shakllantirishga xizmat qilishi adabiyot o'qituvchisi shaxsiga katta mas'uliyat yuklaydi. Adabiyot o'qituvchisi, birinchi navbatda, barkamol shaxs bo'lishi lozim. Adabiyot o'qituvchisigagina xos bir qator kasb sifatlari borki, bu xususiyatlar muallim faoliyatida o'z ifodasini topib, mashg'ulot jarayonida namoyon bo'lmasa, darslar samarasiz bo'lib qolaveradi. Chunki adabiyot o'qituvchisining har bir kasbiy sifati uning faoliyati samaradorligini belgilaydi" [4].

Yirik metodist olim A.Zunnunov rahbarligida yaratilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" kitobida adabiyot o'qituvchisining quyidagi sifatlariga alohida urg'u berilgan: "Adabiyot o'qituvchisi o'zini o'quvchilarga baxshida etishi, o'zi bajarayotgan ishning xalq ma'naviy hayotiidagi ahamiyatini, har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o'z o'quvchilari onggiga, qalbiga singdirishi lozim. O'qituvchilik kasbi har bir adabiyot o'quvchisidan o'zini doimiy suratda kamol toptirib, o'zida badiiylikka moyillikni va ijodkorlikni o'stirib borishni talab etadi" [1]. Bo'lajak adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari mazmuni o'zbek tili va adabiyoti bakalviriyat ta'lim yo'nalishi talabalarining malaka talablarida aks etgan. Ushbu malaka talablari mazmunidan kelib chiqqan holda, adabiyot o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin bo'ladi.

Adabiyot o'qituvchisining ilmiy-nazariy kompetensiyasi – bu uning mutaxassislik hamda unga aloqador bo'lgan pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari va boshqa shu kabi fanlarga oid ilmiy-nazariy bilimlarni puxta egallash, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Integrativ ilmiy-nazariy kompetensiya zamonaviy pedagogik kadrlar tayyorlashda kognitiv zarurat, malakaviy talab, ta'limiy mas'uliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Bizningcha, o'qituvchi uchun zarur bo'ladigan ilmiy-nazariy kompetensiyalarni umumkasbiy ilmiy-nazariy kompetensiyalar va mutaxassislik ilmiy-nazariy kompetensiyalari tarzida tasniflash samaralidir. Umumkasbiy ilmiy-nazariy kompetensiyalar – bu barcha fan o'qituvchilaridan talab etiladigan pedagogik bilimlarga egalik qobiliyatini anglatadi, mutaxassislik ilmiy-nazariy kompetensiyalar bir fan sohasiga daxldor bo'lgan bilimlarni o'zlashtirganlik qobiliyatini bildiradi. Har ikki kompetensiya o'z o'rnida ichki mazmuniy tarkiblarga ajraladi. Masalan, Umumkasbiy ilmiy nazariy kompetensiyalarni: pedagogik ilmiy-nazariy kompetensiya, psixologik ilmiy-nazariy kompetensiya, axborot texnologiyalari ilmiy-nazariy kompetensiyasi kabi turlarga ajratib tavsiflash tahlilda aniqlikni ta'minlaydi.

Pedagogik ilmiy-nazariy kompetensiya barcha fan o'qituvchilari uchun pedagogik faoliyatga kirishishning birinchi va eng zaruriy shartidir. Pedagogik ilmiy-nazariy kompetensiya – bu ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy asoslarini, qonuniyatlarini idrok qilish; pedagogik faoliyat mazmunini, mohiyatini anglash; o'qitishning maqsadi, vazifalari, mazmunini o'zlashtirish; ta'limga oid direktiv – rasmiy hujjatlarni tafakkur qilish; pedagogika tarixi va taraqqiyot bosqichlarini bilish; pedagogik odob, madaniyat, nazokat, takt, relaksatsiya, kreativlik, kommunikativlik kabi kasbiy sifatlarning nazariy jihatlarini tizimli o'rganish orqali o'z pedagogik faoliyatini tashkil etish, refleksiv yondashuv negizida takomillashish qobiliyatini anglatadi.

Psixologik ilmiy-nazariy kompetensiya. O'qituvchi faoliyatini pedagogik psixologiya bilimlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsiga yo'naltirilgan bo'lib, uning markazida INSON turadi. O'qituvchi o'quvchi shaxsini, fe'l-atvorini, ruhiyatini, individual

hamda yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jaryonini tashkil qiladi. O'quvchilarning temperamenti, tafakkur, diqqat, xotira, his-tuyg'u, tasavvur, motivatsiya, qobiliyat kabi psixologik xususiyatlari sifatli ta'lim olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik ilmiy-nazariy kompetensiya o'qituvchida refleksiya, emotsional barqarorlik, assertiv xulq, empatiya, eruditsiya kabi sifatlarni namoyon qiladi. Refleksiv yondashuv o'qituvchiga o'z faoliyatini monitoring qilib borish imkoni beradi. Emotsional barqarorlik orqali o'qituvchi o'zining va o'quvchilarning psixologik muvozanatini saqlaydi. Assertiv xulqli o'qituvchi ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhitni yaratadi, o'zaro hurmatga asoslangan hamkorlikni yuzaga keltiradi. Empatik munosabatlar o'quvchilar mehrini qozonishga olib keladi. O'qituvchi shaxsiy eruditsiyasi bilan o'quvchilarda bilim olishga kuchli motivatsiya uyg'otadi. Ko'rinadiki, pedagogik psixologiya bilimlariga ega bo'lish o'qituvchiga har jihatdan: ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning aqliy kuchidan oqilona foydalanishda, jamoa mehnatini tashkil eta bilishda, qolaversa, o'z sog'ligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari ilmiy-nazariy kompetensiyasi. Zamonaviy ta'lim muhitida axborot texnologiyalari ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlovchi kafolatli o'qitish resurslari sifatida xarakterlanadi. Ushbu kompetensiya o'qituvchidan elektron ta'lim resurslaridan unumli foydalana olishning nazariy-amaliy jihatlarini mukammal o'zlashtirishni talab etadi. Axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanish uquviga ega o'qituvchi bilim oluvchilarni passiv iste'molchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularga bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish, ishtirok etish orqali kognitiv rivojlanish imkonini beradi. Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosida ham olam hodisalarini o'rganishga imkon beradigan ko'plab fikr-mulohazalar bayon qilingan. U "ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzaldir" degan aqidaga rioya qiladi" [4].

Mutaxassislik kasbi ilmiy-nazariy kompetensiyalari. Mutaxassislik kasbi ilmiy-nazariy kompetensiyalari – bu o'qituvchining o'zi dars beradigan fan doirasida nazariy bilimlarga ega bo'lish qobiliyatini anglatadi. Adabiyot muallimi adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid asoslari; adabiy tur va janrlar; adabiy jarayonning tarixiy bosqichlari, adabiy maktablar; badiiy asar tahlili; adabiy oqimlar; adabiyot va boshqa fanlar; adabiy ta'limning falsafiy, axloqiy, estetik jihatlarini yuzasidan yuksak nazariy bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Olingan nazariy bilimlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'qituvchidan metodik kompetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Metodik kompetensiya. Metodik kompetensiyali o'qituvchi ta'lim mazmunini o'zlashtirishning samarador yo'llarini joriy etadi: talabalarni faol harakatga keltira biladi; oz intellektual va jismoniy kuch sarflab, yuqori natijadorlikka erishadi. U talabalarning aqliy kuchidan oqlona foydalanadi, jamoani bir maqsad yo'lida birlashtiradi, motivsion quvvat beradi, darsdan ko'zlangan ta'limiy-tarbiyaviy maqsadni zabt etadi.

Kommunikativ kompetensiya. Adabiyot o'qituvchisida yaqqol namoyon bo'ladigan kasbiy sifatlardan biri, shubhasiz, uning muloqotchanlik, notiqlik qobiliyatidir. Adabiyot o'qituvchisi hamisha so'z bilan ish ko'radi, uning asosiy quroli, ta'lim-tarbiya vositasi – so'z hisoblanadi. U so'z orqali o'quvchilar qalbiga yo'l ochadi, ta'lim-tarbiya beradi. Adabiyot o'qituvchisining ta'sirli, ifodali nutqi o'quvchilarda estetik nafosat, nozik did, yuksak ehtiros, nafis tabiat, ma'naviy poklik, ma'rifiy ulug'lik sifatlarini qaror toptiradi.

Ilmiy jihatdan olib qaralganda, adabiyot o'qituvchisi so'z qudrati orqali o'quvchilarning xotira, diqqat, tasavvur, motivatsiya, tafakkur, eruditsiya, empatiya kabi psixologik jarayonlari va xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ularda insoniylik, adolat, vatanparvarlik, o'zlikni anglash qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Badiiy ijodkorlik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisiga xos faoliyat qirralaridan biri ilhomiy holat, badiiy did va tafakkurga asoslanadigan xususiyat badiiy ijodkorlikdir. Adabiyot o'qituvchisi ilmiy haqiqatlar bilan emas, badiiy asarlar bilan ish ko'radigan mutaxassis bo'lganligi uchun ham uning tabiatida ijodkorlarga xos belgilar bo'lishi shart. Taniqli rus pedagog olimi L.V.Zankovning fikricha: "Bugungi darsni kechagidan, ertangisini bugungidan yaxshiroq va samaraliroq tashkil qilish ijodkor o'qituvchining doimiy shioridir" [6]. Ijodkor o'qituvchining darslari qiziqarli o'tadi, bilim oluvchilarda ichki motivatsiya yuqori bo'ladi, auditoriyada juda ham yengil, quvnoq, maroqli, barchaga manzur bo'ladigan muhit qaror topadi.

Badiiy ijrochilik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisiga xos bo'lgan kasb kompetensiyalaridan yana biri badiiy ijrochilikdir. Bu jarayonda uning so'zamolligi, nutqiy chechanligi, notiqlik mahorati, san'atkorlik sifatlari namoyon bo'ladi. Badiiy ijrochilik qobiliyatiga ega adabiyot muallimi badiiy asar ruhiyatiga tez kira oladi, o'zining yuz, qo'l harakatlari, mimikasi, jestlari bilan ijro darajasini yanada oshiradi. Adabiyot o'qituvchisi ifodali o'qish sirlarini mukammal bilishi, ayniqsa, nutq texnikasi, uning unsurlari: ovoz, fonatsiya, diksiya, tembr, tepm, pauzaga amal qilish qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Badiiy ijrochilikning muhim qirralaridan biri badiiy o'qish mahoratidir. "Badiiy o'qish - holatga kirib o'qish, qahramonni his qilish degan ma'noni bildiradi" [5]. Badiiy o'qish mahorati o'qituvchining biror asardagi muallif va timsollarning tuyg'ularini mohirona, ta'sirli yetkazib berishida namoyon bo'ladi. Muallif va timsollar nutqi hamda ruhiy holatini butun jozibasi bilan o'quvchilar ma'naviy dunyosiga olib kirish murakkab ishdir. O'quvchilarning ruhiy, hissiy dunyosini "zabt" etish, har bir o'quvchining qalbiga yo'l topa bilish o'qituvchi badiiy o'qish mahoratining samarali natijasidir [6].

Badiiy vositachilik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisi badiiy asar, muallif va o'quvchilar orasida badiiy vositachi vazifasini bajaradi. Adabiy ta'limda badiiy matn mohiyatini, mantiqiy va estetik ma'nolarini anglash muhim vazifa sanaladi. Bu kompetensiya o'qituvchining o'quvchilarni badiiy asar matnidagi jozibani his qilishga o'rgatishi va ularda estetik didni o'stirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnni o'quvchilarning shaxsiy ma'naviy mulkiga aylantirish jarayoni, avvalo, o'qituvchining mahoratli vositachiligiga bog'liq. Aynan o'qituvchi vositachiligida o'quvchi asar mazmunini anglaydi, uning ichki mantiqi va sehrli jozibasini kashf etadi. Matn mazmuniga chuqurroq kirib borgan sari o'quvchida qiziqish tobora ortib boradi. Bu esa kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tashkilotchilik kompetensiyasi. Ijtimoiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega adabiyot fani o'qituvchisi dars va darsdan keyingi vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etadi, yangi loyihalarni joriy etadi, o'quvchilarni o'z atrofida birlashtiradi; axloqiy, aksiologik tarbiyaga urg'u beradi; intellektual - zakovat o'yinlarini uyushtiradi; jamoaviy mehnatni yo'lga qo'yadi, o'quvchilar orasida o'zaro do'stlik, totuvlik, birdamlik muhitini yaratadi; bilim oluvchilarda loqaydlik, boqimandalik, jur'atsizlik, harakatsizlik kabi qusurlarning shakllanmasligiga amaliy choralar ko'radi; o'quvchilar bilan birgalikda faol, tashabbuskor va ijtimoiy jihatdan mas'ul jamoani shakllantira oladi.

Ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisining muhim kompetensiyalaridan biri uning ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatidir. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi badiiy asarni tahlil qilishda adabiyotshunos olimlar, munaqqidlar darajasida yondashishni bilishi, asarning badiiy xususiyatlari va o'ziga xos jihatlarini ilmiy asoslangan holda tahlil eta olishi zarur.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati nafaqat o'qituvchining muayyan ilmiy qarashlarga ega bo'lishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini, pedagogik salohiyatini rivojlantiradi. Chunki badiiy

asarni chuqur, teran va ilmiy asosda tadqiq etish — matnning ta'sirchan, jozibali va sirli jihatlarini ochish, yangi ma'no qirralarini kashf etish imkonini yaratadi. Bu esa, o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, estetik didi va insoniy fazilatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotchi o'qituvchi o'qitish metodlari, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish strategiyalari, didaktik ta'minotni boyitish yo'llari, talabalarning o'zlashtirish darajasini rivojlantirish mexanizmi va shu kabi dolzarb mavzularda ilmiy-tadqiqotlar olib boradi. OTM miqyosidagi ilmiy-o'quv seminarlar, Respublika, Xalqaro konferensiyalar hamda ilmiy nashrlar tadqiqot ishlarining ommaviylashuvida, rasmiylashtirib borilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik amaliyotchilik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisining pedagogik amaliyotchilik faoliyati uning ilmiy tadqiqotchiligiga yaqin turadi. O'qituvchi oliy maktabda va mustaqil tarzda o'zlashtirgan nazariy va metodik bilimlarini amalda qo'llay olgandagina adabiyot o'qitish muayyan samara keltiradi. Badiiy adabiyotning o'ziga xosligini saqlagan holda bir saboq davomida uni o'quv adabiyotiga aylantirish, o'quv tahlilini amalga oshirish, badiiy matnni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari, muayyan vaqtdagi ruhiy holatlariga mos ravishda taqdim etish choralarini ko'rish adabiyot o'qituvchisidan faqat bilimdon mutaxassisliknigina emas, balki kerakli didaktik tadbirni o'z vaqtida ko'ra oladigan tadbirkor amaliyotchi-metodist bo'lishini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot o'qituvchisining jamiyatda tutgan o'rni, ta'lim tizimidagi mavqei, pedagogik maqomi uning kasbiy kompetensiyalariga, kompetentligiga qat'iy bog'liqdir. Zero, zamonaviy ta'lim muhitida yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun pedagoglardan yuksak kasbiy bilim, metodik ustuvorlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A., Esonov J., Xotamov N., Ibragimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1992. 77-b.
2. Inomxo'jaev S., Zununov A. Ifodali o'qish asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1973. 223-b.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1996.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar matni. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti, 2010. 3-b.
5. Yo'ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "Universitet", 1994. 92-b.
6. Занков Л.В. Избранные педагогические труды. Беседы с учителями. -М., Издательство: Педагогика, 1990, 139-с.

UO'K: 303.823

"GIPERBOLA KONSEPTUAL SEMANTIKASI"NI VOQELANTIRUVCHI TIL BIRLIKLARINING LINGVOKOGNITIV, PSIXOLINGVISTIK, SOTSIOLINGVISTIK VA LINGVOSTILISTIK TAVSIFI

<https://zenodo.org/records/18754551>

Qoraboyev Jasurbek Bohodirovich
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqola tilshunoslikda mubolag'alachgan frazeologik birliklarning o'ziga xos lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda ingliz va o'zbek tillarida mubolag'alachgan til birliklarining o'rni hamda axborot yetkazishdagi roli va ularning kognitiv konseptual xususiyatlari yoritilgan.*

